



CHET TILLARINI O'RGANISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Akramova Farizod Nuriddinovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Shahzod Behzod o'g'li Mirzaulug'ov

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

shahzodbekmirzaulugov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada chet tillarini o'rganishda axborot texnologiyalari va inovatsion usullardan foydalanish, kadrlarning bilim darajasini bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda davr talabigajavob beruvchi, bilimli, o'z sohasining ustasi bo'layotgan, mustaqil fikrlay oladigan, saloxiyatli kadrlarni tarbiyalash to'g'risida yondashilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, dasturlar innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar, mustaqil fikrlash, bahs yuritish, metod, chet tillari metodikasi, ta'lim, usul.

Annotation. In the article, the use of information technologies and innovative methods in learning foreign languages, the training of knowledgeable personnel who are becoming masters of their field, who can think independently, and who meet the demands of the times in today's rapidly developing world approached.

Keywords: information technologies, programs, innovative technologies, interactive methods, independent thinking, debate, method, foreign language method, education, method.

Аннотация. В статье рассматривается использование информационных технологий и инновационных методов в изучении иностранных языков, подготовка знающих кадров, которые становятся мастерами своего дела, умеющими самостоятельно мыслить и отвечающими требованиям времени в современном быстро развивающемся мире. подошел.

Ключевые слова: информационные технологии, программы, инновационные технологии, интерактивные методы, самостоятельное мышление, дебаты, метод, метод иностранного языка, обучение, метод.

Bugun tezkorlik bilan rivojlanayotgan zamonda ilm-fan, texnika ham shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Har bir sohada taraqqiyot yangilik ko'zga tashlanmoqda. Xususan, ilm-fanda ham katta o'zgarishlar bo'lib, sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. XXI asr – axborot texnologiyalar asrida, zamonaviy yoshlarimiz nafaqat davr ruhiga monand, balki texnika olamidagi taraqqiyotga muvofiq qadam tashlamoqdalar. Shu boisdan ham, davr yosh avlodga ta'lim berish jarayoniga boshqacha yondashishni talab etmoqda. Darslarda

o'qituvchining o'rni ham o'zgarib bormoqda. O'qituvchi endilikda asosan yo'naltiruvchi vazifasini o'tamoqda. Har bir fanni yangi innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'quvchiga yetkazib berish bugungi kundagi ta'limning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Bugun axborot texnologiyalar asrida davr, zamon, yashash tarzimiz ancha tizimli ravishda o'zgardi. Aqlli mashinalar insonlarning ko'pgina amallarini ham bajarishga ulgurdi. Bir so'z bilan aytganda sun'iy intellekt juda yaxshi rivollandi. Lekin texnika va texnologiyalar ancha rivojlanmasin ayniqsa bilimli kadrlarga bo'lgan talab juda yuqori. O'sib kelayotgan avlodning fikrlashi, dunyo qarashi turlicha va bu jarayon bugungi ta'lim tizimida tinimsiz izlanishga, yangi usullar va metodlar ishlab chiqishga undaydi. Davrimizning o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan uning imkoniyatlaridan foydalanib, ta'lim jarayoniga yangicha yondashish va uni tashkil etishga alohida e'tibor qaratishni taqazo etmoqda. Mustaqillik yillarida 51,7 ming nafardan ziyod chet tillar o'qituvchilari tayyorlandi, umumta'lim maktablarining 5–9 sinflari uchun ingliz, nemis va fransuz tillari bo'yicha multimedia darsliklari, boshlang'ich sinflarda ingliz, nemis va fransuz tillarini o'rganish bo'yicha elektron resurslar tayyorlandi, umumta'lim maktablarida, akademik litseylarda va oliy o'quv yurtlarida 5 mingdan ko'proq lingafon kabinetlari jihozlandi.

Zamon bilan hamnafas qadam tashlashni maqsad qilgan o'qituvchilar darsning har qanday qismini AKT orqali jonlantirishga tayyor bo'lishlarini davr talab etmoqda. Bugungi kunda yuqori kasbiy malakaning asosiy talablaridan biri chet tillarini mukammal bilish bo'lib qoldi. Xalqaro muloqot tillar o'rtasida yetakchi o'rinni egallab kelayotgan ingliz, nemis, fransuz tillarni o'rganishga alohida e'tibor berilayotgani ham bejiz emas. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning 2012-yil 13-dekabrda PQ–1875-sonli qarori qabul qilingandan so'ng mamlakatimizda chet tillarni o'qitishga, o'rganishga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. 2021-yil 6-may kuni Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora tadbirlari yuzasidan videosektor yig'ilishi o'tkazildi va chet tillarini o'qitish yangi bosqichga chiqdi. Shu kundan boshlab har bir maktab bitiruvchisi kamida maktab davrida 2 ta chet tilini mukammal bilishi va davlat organlari xodimlari ham chet tillarini bilishlari shart etib belgilandi. Ta'lim tizimida chet tillarini o'qitish, o'rgatish ilmiy yondashuv asosida, davr talablariga to'la javob bera oladigan yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar joriy etilishi asosida yangi sifat darajasiga ko'tarilib bormoqda. Ayniqsa, Bugun Respublikamizda 18254ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari, 9691ta umumiy o'rta ta'lim maktablari, 102tadan ortiq oliy ta'lim muassasalari (2019 yilgi ma'lumot) yoshlarimiz chet tillarini o'rganishmoqda.

Ta'lim va tarbiyani o'zaro bog'liqligi, uzluksiz ta'lim tizimida chet tili o'zlashtirgan mutaxassislar tayyorlashda izchillikni ta'minlash bunda samarali shakllar va usullarni, yangi qo'shimcha matnlar o'qitish texnologiyasi metodikasini joriy etish va shu kabi boshqa ilg'or ta'lim uslublaridan keng



foydalanish ijobiy natijalar garovidir. Chet tilida munosabat nutqi, qo‘shimcha kasbiy matnlar o‘rganishning ko‘plab turlarini bilish davr talabi ekanligini ko‘rsatib beradi. Boshqa tillar mohiyatini kamsitmagan holda, xorijiy tilda muloqot qilishda, nutqini tushunish mutolaa qilish va yozish, nutqiy faoliyat amaliyotida, ixtisoslik, mutaxassisligi bo‘yicha keng tarmoqli va kasbiy adabiyotlarni o‘qishda ularga tushuntirish annotatsiyalar, tezislar, shuningdek, yozma axborot almashish jarayonlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati yaqqol namoyon bo‘ladi. Metodist olimlarimiz, ta’kidlaganlaridek, til o‘rganuvchilar matn mazmunini obrazga kirib ifodalash, matnda aks etgan voqelikni, unda ishtirok etayotgan personajlar fikri bayonidan boshqa, o‘z fikr-mulohazalarini ham suhbat mavzusiga qo‘shimcha tariqasida bayon etishi, o‘quvchini lug‘at boyligini ortishi chet tilida to‘g‘ri fikrlashga yordam beradi. Bunday uslubdan o‘quv jarayonida to‘g‘ri foydalanilsa, o‘zlashtirish bo‘yicha ham, o‘qitish muddatlari bo‘yicha ham, xorijiy tilni mukammal o‘rganishda ham ijobiy natijalarga erishishga imkon yaratiladi. Eng quvonarli tomoni til o‘rganish bilan bir qatorda, o‘quvchining zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydalanishga qiziqishlari ortadi. Mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish ham dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Chet tili fani to‘rt aspectga (o‘qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish) bo‘linib, ularning har biri bo‘yicha alohida tushuncha va ko‘nikmalar berilmoqda. Ta’lim texnologiyalari, bu ta’lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, ta’lim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali ta’lim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

Xususan, chet tilini o‘rganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til o‘rganish va o‘qitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili o‘rganishning har bir aspect (o‘qish, yoish, tinglab tushunish va gapirish)ida qo‘l keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til o‘rganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda o‘quvchi bir paytning o‘zida so‘zlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, so‘z boyligi va uning ma’nolariga e’tibor berishi talab qilinadi. Ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchilar ham axborot – kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib o‘rgatish va o‘rganish eng samador usullardan biridir. Bu jarayonda, jumladan: – kompyuterlardan foydalanganda o‘quvchi chet tilidagi video roliklarni, namoyishlarni, dialoglarni kino yoki multfilmlarni ham ko‘rish ham eshitishi mumkin; – chet tilidagi radio eshittirishlar va televideniedagi dasturlarni eshitish va tomosha qilish mumkin; – ancha an’anaviy usul hisoblanadigan magnitafon va cassetalardan foydalanish; – CD pleyerlardan foydalanish mumkin. Bu texnik vositalardan foydalanish o‘quvchilarning chet tilini o‘rganishlari jarayonini qiziqarliroq va samaraliroq bo‘lishini ta’minlaydi. Globallashuv jarayonida

hayotimizni internetsiz tasavvur qilish qiyin. Chet tilini o'rganish va o'qitish jarayonida undan unumli foydalanishning eng samarali usullardan hisoblanadi. Internet orqali chet tilida so'zlashuvshilar bilan muloqot qilish imkoniyati paydo bo'ladi. E-mail orqali xat yozishish bilan yozish mashqini takomillashtirish mumkin. Ta'lim jarayoniga zamonaviy – kommunikatsion texnologiyalarni olib kirish ulardan maqsadli va to'g'ri, unumli foydalanish, ular orqali o'quvchida chet tiliga bo'lgan qiziqishni orttirish, o'qitish samaradorligini oshirish eng muhim masala hisoblanadi. Bu orqali ta'limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanishga imkoniyat tug'iladi va talab ortadi. Bugungi kunda innovatsion ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullaridan foydalanilsa, darsning samaradorligi yuqori bo'ladi va o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarining ortishi ham ta'minlanadi. Chet tilini o'rganishga ehtiyoj yuqori bo'lgan bir davrda, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanish bu jarayonni samarali bo'lishiga olib keladi. O'quv jarayonida eng ko'p ishlatiladigan AKT mablag'lari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1) elektron darsliklar va o'quv qo'llanmalari kompyuter va multimedia proektori yordamida namoyish etildi; 2) elektron entsiklopediyalar va ma'lumotnomalar; 3) simulyatorlar va sinov dasturlari; 4) Internetda ta'lim manbalari; 5) bo'yoq va rasmlar bilan dvd va CD diskalar; 6) video va audio jihozlar; 7) ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqish ishlari; 8) Interfaol doska. Matn mohiyatidan kelib chiqib, kompyuter vositasida ta'limiy til o'rganish bo'yicha turli o'yin shaklida yaratilgan dasturlar vositasida tuzilgan kompozitsiyani yozib ko'rsatish yoki so'zlab berish taklif etilishi, yoki oldindan ajratib olingan rasmlar yordamida ma'lum vaziyatni yaratish so'ngra o'sha kompozitsiyani so'zlab berish kabilardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim sohasida: 1) Internetda, Internetda, tipdagi brauzerlar yordamida Internetda qidirish Internet Explorer., Mozilla Firefox. va boshqalar, turli xil qidiruv tizimlari va onlayn ish dasturlari (Yandex.ru, Rambler.ru, Mail.ru va boshqalar) 2) asosiy qo'llaniladigan asosiy qo'llanmadan foydalanib matnlar bilan ishlash microsoft dasturlari Idora: Microsoft Word. Matnlarni grafik dizayn bilan yaratishga va tahrirlashga imkon beradi; Microsoft Power nuqtasi materialning yanada rang-barang namoyishi uchun slaydning to'liq namoyishini yaratishga imkon beradi; Microsoft Excel. Ma'lumotlarni hisoblash, tahlil qilish va inlektulyatsiya qilish va jadvallar va veb-sahifalarda ro'yxati bilan ishlash imkoniyatini beradi; Microsoft Office. Nashr kitoblari, risolalar, risolalar va hkni yaratish va o'zgartirish imkonini beradi; 3) tarjimonlar (PromTTXT) va elektron lug'atlar (abbylingvo7.0) yordamida matnlarni avtomatik ravishda o'tkazish; 4) ma'lumotlarni saqlash va yig'ish uchun (CD-, DVD diskalar, Flash diskalar) uchun; 5) aloqa qilish (Internet, elektron pochta, Skype, Hangout va boshqalar); 6) grafika va tovushni qayta ishlash va o'ynash uchun (Microsoft pleerlari) Media pleeri., Zpplayer, CoreldRaw, Photoshop, sxemalar, rasmlar va grafiklarni yaratish dasturlarini (vidio va boshqalar) ko'rish dasturi.



Multimedia taqdimotlari deyarli barcha o'qituvchilar tomonidan keng qo'llaniladi. Ular o'qituvchilar va talabalar uchun ham qulaydir. Boshlang'ich egalik qilish kompyuter savodxonligi Siz ajoyib natijalarga erishish uchun to'quvchiga asoslangan va o'quvchilarni jalb qiladigan original o'quv materiallarini yaratishingiz mumkin. Multimedia taqdimotlarining ta'lim salohiyati nutqni o'rganish uchun vizual qo'llab-quvvatlash uchun ya darslarida samarali qo'llanilishi mumkin.

Multimedia taqdimotlarining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Turli xil matnli va ko'rinadigan turli xil narsalar;
- taqdimot uchun foydalanish uchun interfaol, multimedia kengashi sifatida foydalanish va hatto fonetik va hatto fonetik materialni yanada ko'proq sevantatsiya qilish imkonini beradi, shuningdek barcha nutq faoliyatini o'qitishda qo'llab-quvvatlash yordamini amalga oshirishga imkon beradi;
- shaxsiy slaydlardan tarqatma materiallar sifatida foydalanish (qo'llab-quvvatlash, stollar, jadvallar, grafiyalar, sxemalar);
- butun sinf e'tiborini kengaytirish;
- yangi oquv materiallarini idrok etish va yodlash samaradorligini ta'minlash;
- yangi bilimlarni va o'rganilgan materialni tizimlashtirish monitoringini amalga oshirish;
- talabalarning sinf va undan tashqari mustaqil ishi; vaqtni tejash uchun;
- o'qituvchilar va talabalar sifatida kompyuter multimediya kompetentsiyasini shakllantirish, o'quv ishlarini tashkil etishda o'zlarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Chet tillarini o'rganish jarayonida Internet texnologiyalarini amalga oshirishning afzalliklari hozirda shubhasizdir. chet tilini o'rganishda kompyuterlar va mobil telefonlar uchun programmalar yaratish kerak. Bu dasturlarni yurtimizda balki jahon bozorida ommalashtirsak chet tilini o'rganish yanada osonlashadi. Ya'ni biz aytayotgan dasturni o'quvchi qo'l telefoniga yuklab oladi.dastur esa tezda mijoz haqidagi ma'lumotlarni to'playdi va mijozning passport raqamini kiritishini so'raydi,ma'lumotlar kiritilgandan keyin keyin dastur tezda o'quvchi haqidagi bor ma'lumotlarni olib unga mos darslik orqali bilim berib tinglovchini nazoratga oladi.Kunlik reyting tuzish orqali o'rganuvchini sinovlarda o'tkazib rag'batlantiradi.Va shu kabi o'rganuvchilar o'rtasida shuhbat tashkil qilib til o'rganuvchilarning tilga bo'lgan qiziqishlarini ham orttiradi.Agar biz bu loyihani amalga oshiradigan bo'lsak chet tilini o'qitishni yangi bosqichga olib chiqqan bo'lamiz.Bu esa hozirgi davr talabi.

Shunday qilib, o'sib kelayotgan yosh avlodga til o'rganishning yangi uslublarini, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga asoslangan holda ishlab chiqib, o'qish jarayoniga tavsiya etish Iste'dodli yoshlarimizning o'z qiziqqan sohalarida yetuk mutaxassislar bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berishimiz zarur.Agar biz yuqoridagi uslub va loyihalarga asoslangan holda o'quvchilarga bilim bersak albatta kutilgan najijaga qisqa vaqtda erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Отабоева, М. Р. Chet tilini o'qitishda zamonaviy innovatsion texnologiyalaridan foydalanish va uning samaradorligi / М. Р. Отабоева. – Текст: непосредственный // Молодой ученый. – 2017. – № 4.2 (138.2). – С. 36-37. – URL: <https://moluch.ru/archive/138/39058/> (дата обращения: 14.08.2021).
2. <https://uza.uz>
3. yoshlar.gov.uz